


119. Harakatga doir masalalar yechish

Yondosh mavzu:
temiryo'l.

Sxema, masofa,
vaqt, tezlik.




1. Poyezd bekatdan 48 km/h tezlikda jo'nab ketdi. U 1 soatdan keyin bekatdan qanday masofada bo'ladi? 2 soatdan keyin-chi? 3 soatdan keyin-chi? 5 soatdan keyin-chi? Sxema bu savollarga javob berishda qanday yordam beradi?



2. Sxemalarni o'rganing. Har bir sxema uchun daftaringizga tegishli formulani yozing va ular yordamida masalalarni yeching.

- a) Tezyurar poyezd 91 km/h tezlikda 6 soat yurdi. U qanday masofani bosib o'tdi?



- b) Poyezd 3 soatda 195 km yo'lni bosib o'tdi. U qanday tezlikda yurgan?



- d) Parovoz 210 km yo'lni 42 km/h tezlikda bosib o'tdi. U qancha vaqt yo'lda bo'lgan?





3. Masalani yechish uchun sxema tuzing. Sxemada 45m masofa uchun 2ta katakcha oling.

Sardorning bobosi vokzaldan 540m uzoqlikda joylashgan uyda yashaydi. Agar Sardor vokzaldan bobosining uyiga 12 minutda yetib borgan bo'lsa, u qanday tezlikda yurgan?



4. Amallarning bajarilish tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Bu yerda qanday so'z yashiringan?

$$(10415 : 5 + 45837 : 9) + 97363 : 7 - 23 \cdot (206 - 198)$$

- | | | | |
|---------------|----------------|----------------|----------------|
| A 7176 | B 13909 | L 5093 | U 21085 |
| A 184 | G 8 | M 20901 | SH 2083 |



5. Spidometrlarning ko'rsatkichlari bo'yicha har bir avtomobilning harakatlanish tezligini aniqlang.



6. Taqqoslang.

$$5\text{h } 23\text{ min} \quad \boxed{\text{C}} \quad 523\text{ min}$$

$$104\text{ min} \quad \boxed{\text{C}} \quad 1\text{h } 40\text{ min}$$

$$9\text{ min } 30\text{ s} \quad \boxed{\text{C}} \quad 280\text{ s}$$

$$228\text{ s} \quad \boxed{\text{C}} \quad 2\text{ min } 28\text{ s}$$



7. Tenglamalardan birini tekshirish bilan yeching.

$$(780 - m \cdot 60) : 6 = 80$$

$$780 : (t \cdot 9 + 24) = 13$$

$$205 \cdot (560 : k - 68) = 410$$

119. Harakatga doir masalalar yechish



8. Transport vositalarining g'ildiraklarini taq qoslang. Qanday g'ildirak eng katta?

Poyezd



Diametri 95 cm

Avtomobil



Radiusi 313 mm

Velosiped



Radiusi 300 mm



9. Poyezdning 6 ta vagonida 54 tadan, qolgan 4 ta vagonida esa 36 tadan joy bor. Bu poyezdda jami nechta joy bor? Agar poyezdda 287 nafar yo'lovchi ketayotgan bo'lsa, unda nechta bo'sh joy bor?



10. Poyezd 20 m/s tezlikda harakatlanmoqda. U bir soatda necha kilometr masofani bosib o'tadi?



11. Hisoblang. Rasmdagi kabi temiryo'l o'tadigan ko'prik qanday ataladi?

$$9 \cdot 73 + (453 : 3 + 9) : 40 - 114$$

A 657

K 547

V 151

L 653

D 4

U 661

I 160

T 223



12. Yo'l formulasidan foydalanib, yechimni yozing.

Ikki temiryo'l bektasi orasidagi masoфа 84 km. Poyezd 42 km/h tezlikda harakatlanmoqda. Poyezd bir bekatdan ikkinchi bekatgacha qancha vaqtda yetib boradi?